

# TONG yulduzi

N: 3  
(66492)

2005 yil  
17 yanvar - 23 yanvar

Gazeta 1929 yil  
1 avgustdan chiqa  
boshlagan

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

## OTANING ASKAR O'G'LI GA MAKTUBI

Intizorman bir ko'rarga, mehribonim jon o'g'il,  
Doimo yodimdadursan, tanda jonim jon o'g'il.  
Funni uyg'oq o'tkazurman, ko'chadan ko'z usmayin,  
Dillaring mehri bilan band, toza qonim jon o'g'il.  
Kel o'g'il, deb chortadikim hur Vatan o'z qo'yniga,  
Saqlagil yurtimni hushyor, posbonim jon o'g'il.  
Sondan minnatdor hamisha, qon-qarindosh, do'tlaring,  
Erta tong baxting tilarman, pahlavonim jon o'g'il.  
Nat yozarman sof yurakdan kecha-kunduz sog'inib,  
Fushlarimda ko'p ko'rarmen, jonajonim jon o'g'il.  
Mehribonim sen haqingda, jon sarak bo'lgach onang,  
Otang Shoshiy noma yozdi, baxtli onim jon o'g'il.

Siddiqxo'ja SHOSHIY.

## MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI



Xalqimizda «Otang  
bozor, onang bozor»,  
degan naql bor. Bozorga tushib  
ul-bul narsa xarid qilar ekansiz, yudingiz og'irlashib, darrov  
arava izlab qolasiz. Yoki... ularning o'zlari atrofingizda  
o'ralashib yurib, yudingizni eltib beraymi, deb turishadi va buning evaziga  
savdolasha boshlashadi. 300 so'm bering, yo'q, 400 so'm... 14-15 yoshlardagi bu  
bolalarga xohlasangiz ham, xohlamasangiz ham ishingiz tushadi va mehnat haqini  
sanab berarkansiz, maktabda o'qish o'rniga bu yerda yurishganiga achinasiz.  
Nimayam derdingiz, xohlamasangiz ham shu bolalarning ko'pchiligi turli viloyatlardan  
kelishgan. Sturxondaryolik Alijon ismli bola bilan suhbatlashganimda, qisqa qilib  
«tirikchilik-da, aka» deb javob berdi. O'spirinning aytishicha o'qish,  
yozishni hushlamas ekan. Ota-onasidan qochib shu yerlarda kunini ko'rib  
yurganmish. Kuniga 2500 - 3000 so'm topishini, uning 1000 so'mini  
arava ijarasiga berishini aytganida, nahotki bu ona suti og'zidan ketmagan  
bolalarni hayot qiyinchiliklari hozirdanoq o'z domiga  
bo'lsa, deb hayratga tushdim. O'qishni, yozishni  
yomon ko'rman, deb, o'zlari anglamagan holda  
kelajaklariga nisbatan beparvolik ko'zi bilan  
qaramoqdalar-ku, ular. So'nggi pushaymon o'zingga  
dushman.

## ARAVA TORTAYOTGAN BOLA

Oradan o'n yil yoki 30 yil o'tib ham ular arava  
tortib yurisharmikan?



Ahror AHMEDOV, talaba.

## SHOGIRDLARIM-FARZANDLARIM

Yoshligimdan o'qituvchi bo'lishni orzu qilardim. Maktabni tugatgach, Samarqand Davlat Pedagogika institutiga o'qishga kirdim. 1992 yildan boshlab Narpay tumanidagi 60- maktabda boshlang'ich sinflarga saboq beraman. Shogirdlarimning har biri farzandlarim kabi suyuqlikdir. Ularning bilimi, dunyoqarashi, qiziqishi bir-biridan tubdan farq qiladi. To'g'ri, maktabimizda zamonaviy kompyuter xonalari, ligofon kabinetlari yo'q, ammo bolajonlarning kelajakka, bilim o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi juda baland. Ayniqsa, Shoira Orziyeva, Shohsanam Nurmatova, Siroj To'rayev, Mirjalol Musayev, Mohinur Xoliqova singari a'lochii jamoatchi o'quvchilar sinfimiz faxri. Daralarimizni ochiq muloqot, o'yin ko'rinishidagi savol-javoblar bilan boyitib boramiz. O'quvchilarimning har tomonlama puxta bilimiga ega bo'lishi, mening kundalik saboqlarimga bog'liq ekanligini dildan his qilaman. O'z ustimda tinmay ishlayman. Ha, ertamizning egalari bo'lgan o'quvchilarimizning tarbiyasi o'ta mas'uliyatli vazifa. Bu vazifani sidqidildan uddalash har bir ustozning burchidir.



Gulbahor RO'ZIYEVA,  
Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 60-maktabning 4-«V»sinf rahbari.

Men nechun sevaman O'zbekistonni  
Tuprogin ko'zimga aylab to'tiyo.

Nechun vatan deya yeru osmonni,  
Muqaddas atayman, atayman tanho.

Aslida, dunyoda tanho nima bor,  
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?  
Yoki quyoshmi sevgimga sabab?  
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.

Men nechun sevaman O'zbekistonni?  
Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,  
Nechun arqoqlarman tuprog'ini men  
O'paman: «Tuproging bebaho, Vatan!»

Aslida tuprog'ni odil tabiat  
Faqsim aylagan-ku yer yuziga teng.  
Nechun bu tuprog' deb yig'ladi Furqat,  
O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?!

Abdulla ORIPOV

Ko'sh, nechun sevaman O'zbekistonni,  
Sababini ayting desalar menga,  
Shoirona, go'zal so'zlardan oldin men  
Men ta'zim qilaman ona xalqimga.

Xalqim tarix hukmi seni agarda  
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,  
Qortliklarni makon etgan bo'lsayding,  
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?

Vatanlar, Vatanlar, Mayli, gullasin,  
Bog' unsun mangulik muzda ham, ammo  
Furtim, seni faqat boyliklaring-chun  
Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!

Suratda: shoir nabirasi  
Shoxruh bilan.



## MURUVVAT

Bizning Nafis san'at litseyi o'quvchilari Chilonzor tumani «Kamolot» YoIH bilan birgalikda xayri ishga qo'l urdilar. Ular tumandagi 23-Mehribonlik uyiga borib, bu yerdagi tarbiyalanuvchilar bilan Yangi yil tantanalarini davom ettirdilar. Bolajonlarga turli-tuman sovg'alar ulashib, ularning o'ksik qalbiga malham bo'lishdi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ham, tarbiyachilarining ham xursandchiligini ko'rib, qalbimiz g'ururga to'ldi. Shunga aytsa kerak-da, ezgulikning erta-kechi yo'q, deb. Biz bundan keyin ham Mehribonlik uylariga tez-tez borishga qaror qildik. Bu xayri ishimizdan barcha mamnun.

*Qizlarxon YO'LDOSHEVA,  
A. Navoiy nomidagi Nafis san'at  
litseyining 8-«V» sinf o'quvchisi.*



Bilag'on bolalar diqqatiga!  
Siz gazetamiz sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga ma'lum qiling. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib yoziladi. Tinish belgilari o'z o'rni ishlatilmaydi.

**Maqsadimiz: Bilimli bo'ling, chunki osmonni yulduzlar yerni esa bilimlilar bezar.**

## «NAVBAHOR» TO'GARAGIDA BADIY KECHA

Maktabimiz qoshida bir necha yildan buyon «Navbahor» yosh qalamkashlar to'garagi faoliyat olib kelmoqda. Bu yerda 25 nafardan ziyod ijodkor o'quvchilar she'r, hikoya, maqola yozish sirlarini o'rganmoqdalar. To'garakka ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulbahor opa Ahmedova boshchilik qiladi. Yaqinda yosh qalamkashlar «Qish haqida kim qanday yozadi?» mavzusida badiiy kecha o'tkazdilar. Unda maktabimizning barcha o'qituvchilari va o'quvchilari ishtirok etishdi.

**K e c h a d a**  
o'quvchilar o'z ijod namunalaridan o'qib berishdi. Kecha so'ngida maktab direktori Mirzo Vapoyev ijodkorlarga oq yo'l tiladilar.



*Nodira MAHKAMOVA,  
Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi Alisher Navoiy  
nomli 9- umumta'lim maktabining  
o'qituvchisi.*

## A'LOCHI BO'LAMAN

Mana, qishki ta'til tugab, o'qishlar ham boshlandi. O'qish boshlanishi bilan ta'tilda nima qilganim haqida sevimli gazetam «Tong yulduzi»ga maqola yozib jo'natdim. Yangi yil kirib kelgan bo'lsa ham hamon Yangi yil shukhi davom etmoqda. Qishning sovuq havosi esib etni junjiktirsa-da, oilamiz bilan Amir Temur xiyoboniga bordik. Bu yerda bolajonlarning kulgulariga sabab bo'ladigan turli kiyimlardagi masxarabozlarni uchratdik. Ular kattakon davra atrofida tinmay aylanib, o'zlarining hazil-mutoyibalari bilan yig'ilganlarni xursand qilardi. Jajji singlim Navro'zga Qorbobo-yu, Qorqiz har xil hayvonlar qiyofasiga kirib olgan bolalarning chiqishlari juda yoqdi. Biz bu yerda esdalik uchun suratlariga tushdik. Qishki ta'tilni mazza qilib yakunlab, maktab ostonasiga yo'l oldim. Endi faqat a'lo o'qishga intilaman.

*Umida SHARIPOVA,  
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi Habibulla Abdullayev nomli  
2-o'rtta maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi.*



## «JUNGOG'A NEZZR»

Oynayi jahon orqali berib borilayotgan Xitoy televideniyesining «Jungog'a nazr» ko'rsatuvini muntazam ravishda ko'rib boraman. Xitoyliklarning qadimiy madaniyati, u yerda istiqomat qilayotgan tili va dini bizning millatimizga yaqin elatlarning urf-odatlarini ko'rib, bu diyorga mehrim yanada ortdi. Ular ham «Hosil bayrami», «Navro'z» tantanalarini xuddi bizdagidek nishonlashar ekan. Xitoy asli ota-bobolarim yurti bo'lgan. Otajonim bu o'lkaning boy tarixiy merosi haqida bizlarga tez-tez so'zlab beradilar. Ulg'ayganimda, albatta bu diyorga safar qilaman. Hozircha o'zim mustaqil ravishda xitoy tilini o'rganayapman.

*Mahbuba DAUTOVA,  
Toshkent shahar,  
Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
171-maktabning 4- «D» sinf o'quvchisi.*



## «BAXTLI BOLALIK»DAGI BOLALAR

Bizning Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani Madaniyat saroyi qoshida qator yillardan buyon «Baxtli bolalik» bolalar maqomchilar guruhi faoliyat olib boradi. Yoshligimizdan san'atga bo'lgan qiziqishimizni sezgan otanam, singlim ikkovimizni shu yerga olib keldilar. Ustozimiz Elmurod aka Boymurodov rahbarligida maqom yo'nalishidagi ko'plab qo'shiqlarni o'rgandik va sevib ijro eta boshladik. Repertuarimizdagi o'zbek mumtoz qo'shiqlari bilan «Sharq taronalari» festivalida qatnashdik. Yaqinda bizning «Mo'g'ulcha buzrug» nomli

kinofilmimiz ekran orqali namoyish etildi. Ushbu filmni germaniyalik sayyohlar tomosha qilishgach, qiziqib sotib olishdi. Endi bizning san'atimizni germaniyalik do'stlarimiz ham tomosha qilishadi. Guruhimiz qatnashchilari yaqinda Marg'ilonda bo'lib o'tgan ustoz san'atkor Ma'murjon Uzoqov tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan ko'rik-tanlovda ishtirok etdilar. Ustozimiz Elmurod akaning jonkuyarligi, tinib-tinchimasligi biz shogirdlar uchun ibrat bo'lmoqda. Doimo ularga o'xshashga intilamiz.

*Feruz MUSTAFOYEVA va Malika QURBONOVA,  
guruh qatnashchilari.*

## Ustozlar yozadi

## XAYRLI ISH

Shunday insonlar bo'ladiki, ularning qilgan ezgu ishlari avlodlar uchun ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Muzaffar bobo Tursunov umrining 40 yilini ta'lim sohasiga bag'ishlagan fidoiy kishilardan biri edi. O'quvchilarga kimyo va biologiya fanidan saboq berish bilan birgalikda, qator yillar maktab rahbari vazifasida ham faoliyat olib bordilar. Yaqinda ustozning farzandlari Baxshullo va Umarjon akalar, qizlari Ra'noxon hamda Klara opalar tashabbusi bilan ularning shaxsiy jamg'armasi hisobidan ta'lim maskanimizning kimyo va biologiya xonalari qaytadan ta'mirlandi, zamonaviy jihozlar bilan to'ldirildi. Muzaffar boboning farzandlari oilaviy o'qituvchilar sulolasini tashkil etishgan. Bugina emas, ustozning izidan borgan Zulfiya Tursunova, Hakimbek Muzaffarovlar 5 gektar yerga chigit qadashib, 45 sentnerdan paxta hosili yetishtirdilar. Ustoz boshlab bergan ezgu ishlarni endilikda uning farzandlari davom ettirishmoqda. Qishloqdagi qo'ni-qo'shnilar bu oilaga havas qilishadi. Buning boisi esa halol mehnatdir.

*Muharram OBIDOVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 9- umumta'lim maktab o'qituvchisi.*



Havas ko'zi ila boqdim o'zingga,  
Fermulib to'ymadim qosh-u ko'zingga.  
Shodliklar dilingni etmishtlar oshiyon,  
Bu oshiyon sohibi sensan bolajon.


Aziz bolajon, bilsang senga havasim keladi.  
Senga termulib bor dunyoni unutilib, bir lahzada  
murg'ak qalbing bilan oshno bo'lishga oshiqaman.

## XONADONLAR CHIROG'ISAN, BOLAJON

Sening ko'zlarinda na g'ussa, na g'am bor. Turfa  
xil tasodif sir-u sinoatlarga boy bo'lgan bu hayotga  
beg'ubor boqib turasan. Ammo ularning hech biri  
seni o'ylantirmaydi. Bolalikning gashti ham  
shundadir, asli. Ko'ksingda urib turgan mushtdek  
yuraging quvonch va shodliklarga limmo-lim.

Ertaklarni butun vujuding bilan tinglashga  
tayyorsan. Har qanday ertaklar-u afsonalarning asl  
mohiyatida hayotiy voqeliklar mavjud. Ular seni  
ertak qahramonlaridek qo'lingdan tutib, ikir-  
chikirlarga to'la murakkab hayot shohsupasiga olib  
chiqadi. Oq-u qorani tanishingda senga yordam  
beradi. Vaqt o'tgach, beg'ubor bolaliging bebaho  
ertakka, uning takrorlanmas baxtli damlari esa sen  
uchun ortiqcha izoh va isbot talab qilmaydigan ayni  
haqiqatga aylanadi. Bugun sen qanchadan-qancha  
insonlar xonadonining chirog'i, qalb ardog'isan.

Senga nafaqat ota-onang, balki ona xalqing ham umid  
bilan ko'z tikib turibdi. Oldinda seni hayotning past-u  
balandliklari kutmoqda. Bariga tik turish uchun esa  
qaddingni rostlashing kerak, bolajon. Bir kun kelib  
o'yinchoqqa talpingan jajji qo'llaringdan mehr-  
muruvvat, sahovat qilishdek ezgu ishlar keladi. Kim  
biladi, balki sen o'tmishda yashab o'tgan buyuk  
ajdodlarimizning davomchilari bo'lib yetisharsan.



Ha, bolalikning  
beg'ubor onlarini kuzatar  
ekanman, uni musaffo  
osmonga qiyos etgim keldi.  
Orzulari esa parvozdagi  
qushning qanotlari misol  
keng quloch yozmoqda.  
Beixtiyor unga qaytgim,  
ko'nglimdagilarni aytgim keladi. Unda kechgan har  
daqiqam o'n sakkiz ming olamga tatigulik totli edi.  
Osmonida bulut yo'q, bog'larida qizg'aldoqlar iforli...  
Uning iliq nafasini vujudim bilan his etsam, hamon  
quchog'ida tuproqqa ko'milib, xommompish-  
u berkinmachoq  
o'ynayotgandek bo'laman.

Ey, sen bolalik! Sen meni  
ertaklar olamidani haqiqiy  
hayot ostonasiga olib chiqding.  
Bugun sen men uchun onam  
allasidek sog'inchilsan. Qalbim  
ummonida mendan  
uzoqlashayotgan oppoq  
kemasan. Agar-ki, sen bilan  
diydorlashgan damlarim bir  
tasodif shirin tush bo'lsa, undan  
aslo-aslo cho'chib uyg'ongim  
yo'q...

Umida RUSTAMOVA,  
P. F. Borovskiy nomli tibbiyot  
kollejining 2-bosqich talabasi.



Hozir esa bilagingga kuch-quvvat, baland tole  
tilayman. Yurtboshimiz aytganlaridek, sen  
chindan ham kuchli, bilimli, dono va albatta  
baxtli bo'lishing kerak. Qolaversa, mustaqil  
O'zbekistonning suyangan farzandlari, kelajak  
poydevorlari farovonlik timsollaridir.

Senga boqib, ko'nglimga she'r quyuladi:

Xana bir yoshga ulg'aydi ko'ngil,  
Xana gulladi yangi orzular.  
Sezdirmay o'ksib qo'ydi dil,  
Changday to'zidi o'sha tuyg'ular.

Bir bor boqsaydi otashin quyosh,  
Xana o'xshasaydim lolaligimga.  
Xoki boyiga egar edim bosh,  
Bir lahza qaytsaydim bolaligimga.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Qayga boqma, olonglik',  
Bizning yassi tog'imiz.  
Ustiga chiqish gashtli,  
Chog'laymiz dimog'imiz.  
Kozamiz kengliklarda,  
Go'yo bizlar sayyohimiz.  
Voqifimiz har giyohdan,  
Har cho'piga guvohimiz.  
Odam bo'yi buyonlar,  
Bu bizning o'rmonchamiz.  
O'ynaymiz bekinmachoq,  
Xosh-u yalang-qanchamiz.  
Mol boqamiz etakda,  
Xo o'zini bo'sh qo'yib.  
Uyimizga qaytamiz,  
Sayrga rosa to'yib.  
Fut pishig'i boshlansa,  
Futdan beri kelmaymiz.  
Noz-u ne'mat, shirinlik-  
Qutdan beri kelmaymiz.  
Har xonadon, har uyda,  
Bitta tut bor kamida.  
Balxi tutni qoqishar,  
Xoyma tutib tagida.  
Cho'milamiz bearmon,  
Ariqlarda, anhorda.  
Baliq bo'lib o'ynamoq,  
Bizlar uchun xumor-da!  
So'ng qirg'oqqa to'sh berib,  
Belanamiz roshiga.  
Fanimizni toblaymiz,  
So'lim yoz quyoshiga.

<sup>1</sup>Olonglik- ariq, zovur  
sifatida foydalanganda, har yili  
qazilaverib, qirg'og'i  
balandlashgan tepalik.

## NIHOLDA HAM BOR XAYOL

IV


Bahor, bahor, jon bahor,  
Fasllarning sarasi.  
Uning qo'li tekkan joy,  
Go'zallik manzarasi.  
Erkin nafas olaman,  
Fabiating qo'ynida.  
Galstukmi, ajabo,  
Qaldirg'ochning bo'ynida.  
Baland bo'yli turang'i,  
Uyimiz yaqinida.  
Furang'ining fayzi zo'r,  
Bulbullar talqinida.  
Chax-chax urib sayrashib,  
Maftun etar butunlay,  
Sir tuyular mitti qush,  
Barglar ichra ko'rinmay.  
Ovamiz bolalari,  
Jam bo'lishsa-guldasta.  
Chillak o'yin quvlashma,  
Aviga chiqar bir pasda.  
«Uy-joy qurish» o'yini  
O'yinlar a'losi zab,  
So'ng o'yin davom qilar  
Loydan shakllar yasab.  
Birdan bulut to'planib,  
Gumbur-gumbur osmonda  
Hayajondan, quvonchdan  
Qiyqiriqlar har yonda.  
Eslanar guldurmomo-  
Haqidagi asotir.  
Emishki, guldurasa,  
Qaygadir shoshayotir.  
Otiga qamchi bosib,  
Chop!-deb jadal aylarmish.  
Bulutlarning ustida

Aravasin haydarmish.  
Chaqmoq chaqib dahshatli,  
Xomg'ir yog'a boshladi.  
Kimdir vahima qo'zg'ab,  
Uyga qocha boshladi.  
Yashin oqqa yopishar,  
O'ch emish oqqa juda.  
Kiyimimiz oq bo'zdan,  
Xavfimiz ana shunda.  
U paytlarda «adidas»,  
«Montana»lar qayerda.  
Xasan-tusan kiyinish,  
Fantanalar qayerda.  
Yashin urmasin, deya  
Har kallada shu xayol.  
O'zin olib qochishlar,  
Xuddi yildirim misol.  
Bilsamki, guldurmomo  
Ezgulikni tilarkan.  
Xomg'ir yog'ib, o'to'lan  
Bo'y ko'rsatsin deyarkan.  
Xangrar sasi boricha,  
Oshkorlikka chorlarkan.  
Xurma deb o'z holingcha,  
Hushyorlikka chorlarkan.  
Bolalar bir-biriga,  
Shipshildilar: Ana qoch!  
Eshakda kelayotir  
Norim aka, sartarosh.  
Sartarosh ovamizga,  
Aylanib kelib turar.  
Soch-soqol o'sganini  
Vaqtida bilib turar.  
Sochimni qirdirgani,  
Men oldiga bukdim tiz.  
Sochimni suvga ezib,

Razzoq IBROHIM.

Uqalar boshimni tez.  
Fishti tishga qo'yaman,  
Voy, boshginam tortishgan!  
Har poki yuritganda,  
Qadalar misli tikan.  
Og'riqlarga chidolmay,  
Ko'zlarimni yoshladim.  
Qonatgan joylariga,  
Paxta ekib tashladim.  
Bilasanmi, der usta-  
Otang kolxoz raisi.  
Onangizni ho'rlab u  
Boshqa ayol muxlisi.  
Sizday qora ko'zlarni,  
Suyib yursa bo'lmasmi?  
O'z ro'zg'ori g'amida  
Kuyib yursa bo'lmasmi?  
Mo'ylovin burab olib,  
Hu, to'ram kelib qoldi.  
Otini gijinglatib,  
O'zi ham kelib qoldi.  
Otam bo'lsangiz agar,  
Qani pul?deb turib ol.  
Bizni tashlab, qayerda  
Xuribsiz deb, shovqin sol.  
So'zlashib turdi otam,  
Ancha vaqt to'xtab otda,  
Sartarosh o'rgatganin  
Aytib tashladim shartta.  
Mazza qilib ikkovi,  
Xoxolab kulishdilar.  
Ot ustida uzatdi:  
-Mana, o'g'lim, pul shular.  
Mehr-shafqat to'lgini,  
«Nafratim» bosib ketdi.  
Otamga muhabbatim,  
Hurmatim oshib ketdi.  
(Davomi bor.)





Bolalar sporti

*Bu maktabni kim ochdikin, deya qiziqyapsizmi? Unda keling, bolalarga bir olam quvonch ulashgan, sportga astoydil mehr qo'ygan qashqadaryolik Jomurod polvonni sizlarga tanishtirib o'taylik. Shu o'rinda polvonning ushbu harakatini qo'llab-quvvatlagan jamoatchilikka ham ofarin deymiz.*

yo'li bilan ta'mirlash ishlarini amalga oshirdi. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining Qashqadaryo viloyat bo'limi esa ushbu maktabga zamonaviy kurash gilamlarini olib berdi. Qarabsizki, bu fidoiylik natijasida


kelmoqdalar. Murabbiylar Bahridin Yormatov va Abdulla Safarovga xo'jalik hisobidan maosh ajratilgan. Haftaning yakshanba kundan tashqari har kuni kurash zali yosh polvonlar bilan to'la. Biz maktab bosh murabbiyi Bahridin polvon Yormatovdan kelgusi rejalar

Qolaversa, yaqin kelajakda qizlar o'rtasida ham kurash to'garagini ochmoqchimiz. Nafaqat o'g'lonlarimiz, balki To'maris hamda Barchinoylarning avlodlari bo'lgan qizlarimizda ham kurashga qiziqish borligini bilamiz. Yaqindagina Jahon chempioni unvonini

## CHIROQCHINING KURASH MAKTABI BOR

2003 yilda

qishloqda ajoyib sport saroyi yuz ochdi. haqida so'radik.



Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanining Salim Jo'rayev jamoa xo'jaligi rahbari Jomurod polvon Pirnazarov tashabbus bilan chiqdi. U xarobaga aylangan hududdagi klubni ta'mirlash, bolalar shug'ullanadigan kurash maktabini ochish taklifini aytdi. Nafaqat taklif, balki xo'jalikning sof daromadidan 12,5 million so'mni amaliy ishlarga ajratdi. Mahalliy aholi hashar

yosh polvonlarning 100 nafaridan ziyodi sportning kurash turi bo'yicha mashg'ulotlarda muntazam shug'ullanib

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining Qashqadaryo viloyat bo'limi raisi Bahrom Avazov bir necha bor kurash maktabimizga tashrif buyurdi. Bir necha Xalqaro turnirlar g'olibi, Jahon chempioni Bahrom polvonning daldasi, yosh kurashsevarlarni yuksak natijalar sari yo'naltirmoqda. Kurash saroyimizda har xil musobaqalarni tashkil etib boryapmiz. Viloyatimizdagi mavjud kurash maktablari bilan hamkorlikda o'zaro bellashuvlar o'tkazib turibmiz.

qolga kiritgan hamyurtimiz Dilshoda Hazratovning g'alabasidan keyin kurashchi qizlarimiz soni ko'payib qoldi. Murabbiyning dadil gap-so'zlaridan ko'rinyaptiki, yaqinda ish boshlagan Kurash maktabida ish qizg'in. Demak, chiroqchilik bolalardan hali ko'p umidli ishlarni kutsa bo'ladi. Chunki ularni qo'llab, sport olamiga yetaklayotgan fidoiy ustozlari bor. Zero, Abdulla polvon, Isoq va Bahrom polvonlarning qishloqda kamol topganini e'tiborga olsak, tez orada Salim Jo'rayev hududidagi Kurash maktabidan ham chempionlar yetishib chiqishiga ishonch uyg'onadi.

**Akmal ABDIYEV,**  
Qashqadaryo viloyati,  
Chiroqchi tumani.

### Oltin to'p sehrarlari

Andrey Shevchenko, 1976 yil 29 sentabrda Ukrainaning Kiyev viloyatida tug'ildi. Harbiy xizmatchi oilasida dunyoga kelgan bu o'g'lonni hech kim kelajakda zo'r futbolchi bo'ladi, deb o'ylamagandi.

*Yaqinda «Frans futbol» haftanomasi tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada ukrainalik futbol yulduzi, Italiyaning «Milan» klubi hujumchisi Andrey Shevchenko Yevropaning «Eng yaxshi futbolchisi» deb topildi va unga «Oltin to'p» sovrini topshirildi.*

o'rtasida namoyon mashg'ulotlarga pishgan Andrey tez orada bu tashvishlarni ham yengib o'tdi.

futboldan topshirilishi kerak bo'lgan imtihonlardan yiqilgandi-da!

Ishongingiz kelmaydi-a?! So'ng muntazam

o'zining bir-biridan chiroyli gollarini kiritib boshladi. Bu esa Andreyning «Milan» (Italiya) jamoasi murabbiylari nazariga tushishiga sabab bo'ldi. 1999 yilda Shevchenkoning bolalikdagi orzusi ro'yobga chiqdi: 24 million dollar evaziga «Milan» klubiga sotildi. Shevchenko yangi jamoasida kuchli futbolchilar orasida yo'q bo'lib ketmadi. O'sha paytdan to hozirgacha o'z to'purarlik qobiliyatini namoyish etib, «Milan»ning asosiy


## SHEVCHENKONING ILK DASTXATI

Uning otasi Nikolay Shevchenko Kiyevning «Dinamo» klubi futbol maktabiga yetaklab keldi. O'shandayoq 12 yoshli Shevchenko o'zining mahorati tengdoshlari

stadionida to'p surishga muyassar bo'lgan yosh futbolchining maydondagi ishtiyoqi baland edi.

Shevchenko 7-sinfga o'tganida mahalliy gazetalarning birida u haqida mazmunli maqola chop etildi. Gazetani qo'lga olgan bolakay hayajon ila sinf rahbarining huzuriga oshiqdi. Muallim esa huddi o'quvchisining kelajakda mashhur futbolchi bo'lib yetishishini sezgandek, maqola tagiga «Bo'lajak chempiondan» deb imzo chekib berishini so'radi. 14 yoshli Andryusha esa ustozining gapini yerda qoldirmadi. Bu bo'lajak yulduzning ilk dastxati edi.

Maktabni tamomlagan iqtidorli futbolchi o'sha yiliyoq Kiyev Jismoniy tarbiya institutiga kira olmadi. Bunga ishonish qiyin edi. Nega deysizmi? Axir



Andrey Shevchenkoni Ukraina olimpiya terma jamoasiga chaqirishdi. So'ngra, u «Dinamo» safida milliy chempionat va Yevropa maydonlarida

hujumchisiga aylandi. Har mavsumda gol urish bo'yicha karvonboshilikni bironvga bermadi. 2003 yilda esa Shevchenko «Milan» jamoasi safida Yevropa chempionlar ligasida g'oliblikka erishdi. Nufuzli kubokni Kiyevga olib kelib, marhum murabbiyi Valeriy Lobanovskiy haykali poyiga qo'yar ekan, bu g'alabasini ustoziga bag'ishlashini aytib o'tdi.

Bugungi kunda u nafaqat «Milan» tarkibida, balki Ukraina terma jamoasining ham Germaniyada o'tadigan Jahon chempionatiga chiqishi uchun tinimsiz gollar kiritmoqda.

**M.MADRAHIMOVA tayyorladi.**





Bolalar, siz san'at va madaniyat beshigi bo'lgan ona O'zbekistonimizda yashar ekansiz, vatanimizning yer yuzida o'z o'rni borligi-yu, ko'ksimizni tog' qilguvchi faxrli ovozi yangrab turishidan har qancha faxrlansangiz arziydi.

Yaqinda Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi «Polvonnoma» nomli kitobni chop etdi. Kitob muallifi polvon Tursun Ali MUHAMMAD hayotiy lavhalar-u, ko'rgan-kechirganlari asosida

o'quvchini o'z kuchiga ishonirishga undaydi. «Polvonlik sirlari» va «Belida belbog'i borlar» kitoblari kabi «Polvonnoma» ham qo'lma-qo'l bo'lib ketishi aniq. Shuning uchun ham kitobdan ayrim boblarni sizga havola qilib, yanada g'ayratli va shijoatli bo'lishingizga hissa qo'shishga harakat qildik. Polvon bo'lmoq uchun nimalar qilmoq kerak? Bu savolga javobni albatta «Polvonnoma» dan olasiz.

# POLVON BO'LISH OSONMI?

## SOG'AYISH ISTAGI

Ko'chamizdagi bir bolaning oyog'i bukilib, yozilmay qolgan. Har ko'rganimda ko'nglim buziladi. Buning ustiga bola bechoraning tizzalari ham bir-biriga ishqalanib, yurishga halaqit beradi. Kamquvvat, oz yuradi. Ko'cha eshik yoniga kursi qo'yvolib o'tiradi. Jo'ralaridan uyalsa kerak-da. Lekin nima qilsin, xudo bergan dard.

Bir kuni unga: -Uka, polvon bo'lasanmi?- dedim. Gapim ko'ngliga og'ir botmadimikan, deb xavotirlanib turgandim, birdan:

-Bo'laman, aka,- deb qoldi.

-Mashq qilasanmi men bilan?- desam:- Bo'ladimi o'zi?- deb so'radi.

-Bo'ladi!- dedim.- Faqat shartim- men aytgandek mashq qilasan.

-Xo'p,- dedi u. Keyin: - Polvon aka, o'rtog'im bor, u ham mashq qilsinmi?- deb so'radi.

O'rtog'ining tovonni yerga tegmas, tekkizgudek bo'lsa, tizzasi bilan bukilib, yiqilib tusharkan. Yuk ko'tarolmaydi, ahvoli juda og'ir.

Ikkalovini hovliga olib kelib, mashq qildirib boshladim. Astoydil kirishganimiz uchun bolalarda qiziqish ortdi. Boyaqishlarning bormagan, uchramagan do'xtiri,

sanatoriysi qolmagan ekan. Muolajalar natijasiz tugagan. Polvon bo'lishdek niyatning

tug'ilishi ularga madad bo'ldi.

Men dastlabki mashqlarimiz oyoqqa kuch kirgizish uchunligini, og'riqqa chidash kerakligini, so'ng hammasi yaxshi bo'lishini bolalarga tushuntirdim. Rozi bo'lishdi. Mashqqa shunaqa berilishdi, shunaqa berilishdi deng. O'tirib-turishlariga qiyin bo'lmasligi uchun devorga maxsus asbob o'rnatib berdim. O'tirib-turish, rezinka tortish kabi mashqlarni o'ttiz martadan bajartirdim. Oyoqda o'ttizta, qo'lda o'ttizta, qorinda o'ttizta va hokazo. Bir kuni sanab turdim, qo'shni bola qo'llariga to'qqiz yuz marta tayanib, yotib-turdi.

-Bunchalik qiynama o'zingni, tag'in charchab-netib qolma,- dedim unga. -Ko'p bajarsam, foydasi ham ko'proq bo'lmaydimi?- deb so'radi u.

-Maromidan oshirma, - deyman. Qayoqda, qora terga botib shug'ullanaveradi.

Tajribasi ortgach, mashqlarga kuniga bittadan yangilik kiritadigan bo'ldi. Hatto uning erkin o'tirib-turayotganini ko'rib, do'xtirning ham og'zi ochilib qoldi. Keyingi bosqichda oyog'ini cho'zishga kirishdik. Og'riqning zo'ridan baqirib yuboraverdi. «Dodlaganimga parvo qilmanglar, to'g'rilayveringlar», deydi. Keyinroq oyog'iga sherigini chiqarib, mashq qiladigan bo'ldi. Qiynalib, ko'zlari qizarib, qontalash bo'lib ketsa ham: «Bos, bos», deyaverardi. Bir kuni shifokor Abdurahmon Niyozov unga maxsus moslama yasattirib keldi. Oyoqlarini uqalab, paylarini

ushlab tursa bo'lardi. Shu holicha kunda bir soat, keyinchalik ikki soat yuradigan bo'ldi. Undan ortig'iga bardoshi yetmadi. Ota-onasi ham farzandlariga rahmlari kelib, ko'p og'ritar ekan, degan bahona bilan moslamani taqti may qo'yishdi. Har holda bola yuguradigan, yuk bilan bemalol o'tirib-tura oladigan bo'ldi.

Bu kasallik orqa miya falajligi deb ataladi. Uning davosi hali topilganicha yo'q. Biz qo'llayotgan usul hozircha yagona chora. Shu usul qo'llanganda bola hech bo'lmasa to'shakka mixlanmay, o'z gavdasini o'zi ko'tarib yura oladi. Nogironlarga hech qachon mayibsan, deb muomala qilmaylik, aksincha, ularning beg'ubor ko'ngillarida yashashga, hayotga ishonch va muhabbat tuyg'ularini uyg'otaylik.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.




Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish



Yangi pufakni oldin o'zingiz puflab, yumshatib berishingiz kerak bo'ladi.

O'yinchoq bilan mashq qilish. Bunda uzunligi yarim metrdan bir metrgacha bo'lgan temir yoki qamish

naycha olinadi, orqa tomoniga

o'rnatilib, uchi

ignali o'q yasalib, naychaniq ichiga solinadi. Yumshoq taxtadan yasalgan maxsus nishon xavfsiz yerga ilinadi. Naycha ichiga puflansa, o'q nishonga sanchiladi, bu bolaga yaxshigina ermak bo'ladi.

Chomilishda foydalanadigan qush yoki hayvon shaklidagi puflab shishiriluvchi «po'kak»lar bor. Bolaga shularni puflab

shishirishni o'rgating, bunda nafas burundan olinib, «po'kak» ka og'iz orqali puflanadi. Bu mashqning teskarisi ham mavjud: nafas og'iz bilan chuqur olinib, burundan chiqariladi. Qarang, qancha qiziqarli va foydali mashqlar o'ylab topish mumkin. Erinmang, har kuni bir oz vaqt ajratib, farzandingizni davolayotgan shifokorga yordam bering.

Hovuzda cho'milayotib chuqur nafas olish, nafasni suv ichida og'izdan chiqarish lozim. Suv ichida nafas olmasdan, ko'proq, turishning ham foydasi katta.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish

Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'yingda, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflash, shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi, shartini qo'yish



Kunlarning birida dars mashg'uloti bir me'yorda borar edi. Biologiya o'qituvchimiz uya topshiriq qilib berilgan amaliy mashg'ulotlar yozilgan daftarlarni birma-bir ko'rar edi. Doska yoniga chiqqan o'quvchilar topshiriqni galma-gal o'qituvchimizga ko'rsatar, baho olib, joyiga o'tirar edilar. Navbat kelganda, u daftarin o'qituvchiga uzatdi-yu, negadir besaranjom ko'rindi. Ziyrak o'qituvchi buni darrov payqadi va daftarin shoshilmay varaqlay boshladi. Hammasi joyida, vazifalar a'lo darajada bajarilgan.

-Daftar o'zingnikimi? -so'radi o'qituvchi nihoyat Salimga yuzlanib. Daftarning manzil yozilgan birinchi varag'i yirtilgan edi.

-Albatta o'zimmiki, ustoz, -dedi-yu, xuddi o'qituvchi bir narsani sezib qoladigandek,

*Buloqbooshi tumani, 10-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 10-sinf o'quvchisi.*

ko'zini olib qochdi u. O'qituvchi allaqachon daftar uniki emasligini sezdi.

-Senga necha baho qo'yib beray?

-Nega unday deysiz? Axir

vazifalarni ko'rdingiz, o'zingiz bilib qo'yavering.

-Salim, vazifa «a'lo»ga loyiq. Biroq, uni aniqlamay qo'ymayman, chunki daftarning egasi sen emas.

Salim darhol rad etishga, daftar o'ziniki ekaniga ishontirishga tirishdi.

-Bu kimning daftari?

-o'qituvchi o'rnidan turib, butun sinfdan so'radi.

-To'g'risini ayting, yo'qsa birortangiz ham mendan yaxshilik kutmang.-O'qituvchi hammaga yuzlanib, ogohlantirdi. Oxirgi partalardan birida o'tirgan

Nozim o'rnidan turdi.

-Meniki.

Hamma unga qaradi.

-Nega unday qilding? -so'radi o'qituvchi.

-Berib tur, degandi...

O'qituvchi har ikkalasiga ham baho qo'ymadi, biroq ikkovini sinf majlisi muhokamasiga qo'ydi. Darsdan keyin bo'lib o'tgan sinf majlisida sinfdoshlar har ikkisini qoralab: biri u dedi, biri bu dedi. Nihoyat o'qituvchi majlis oxirida:

-Bugun


meni aldaydigan bola ertaga otanasini, yor-u, do'stlarini aldashi mumkin. Bunday aldovlarga o'rganmang, oqibati yaxshi

emas, -dedi.

Muallimning bu gapi hammaning yodida muhrlanib qoldi.

*Botir EGAMBERDIYEV,*

**ALDOV**



## KO'PNI KO'RGAN MUALLIM

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Har darsda bir yangilik... Ayniqsa, «savodni peshlash»ga ajratilgan o'n besh minutli daqiqalar juda qiziqarli o'tardi. Yo'q yerdagi savollarni topib, domlaga berish uchun shaylanib turardik. U kishi esa «SAGU ni bitirgan» — hamma narsani biladi: Quriyadagi voqealardan tortib, «o'rtiq Stalin bizlarni o'ylab, kechasi ikki soatgina uxlashi»gacha...

Sunnat Aliyevichning dars o'tish «metodikasi»dagi ishontirish mahorati savolimizga beradigan «javob»larida ham yangi qirralar bilan namoyon bo'lar, aytganlarining o'ziga ishonmaslik mumkin emasday edi, nazarimizda... «Toshkentni nima uchun «Toshkent» deb ataladi?», «Yaxshi savol berding, Jabbor Vahobov, kallang ishlaydi! «SAGU»da o'qiganmiz, o'sha yerda yashab, ko'p narsani bilamiz, ko'rganmiz. Savolingga har tomonlama yondoshadigan bo'lsak, yaxshilab quloq sol: shaharning qoq o'rtasida juda katta tosh bor. Usti yapaloq, atrofi yassi. E-ha, mana shu bizning maktabdan mingtasida o'qiydigan bolalar bemalol sig'ib ketaveradi. Qoq o'rtasida juda katta hovuzi ham bor. Ana o'sha tosh borligi uchun shahar nomi «Toshkan» bo'p ketgan. «Toshkon» ham deyishadi. Bu endi ikkinchi masala! Birinchi masalaga qaytadigan bo'lsak,

har kuni

## Muso Toshmuhammad o'g'li OYBEK tavalludining 100 yilligiga

ertalab toshkenliklar o'sha tosh ustida tizilib o'tirib, ole-eb, quyoshning ertalab qanday chiqishini, kechqurun qizg'ish nurlar taratib botishini tomosha qile-eb o'tiradilar», domla qalin qoshlarini chimirib, ko'zlarini qisgan «uzoqlarga» qaraydi, bir daqiqa o'zini toshkentliklar qiyofasiga solib ko'rsatadi, jundor bilagining tirsaklari ustida turgan barmoqlari xuddi objuozning ko'tarilib tushayotgan to'qmoqlariday harakatlana boshlaydi...

Nishonboy balo edi, aqli ko'p narsalarga yetardi. A'lochi-da! Shu bola odamning yetti uxlab tushiga kirmaydigan savollari bilan domlamizni biroz esankiratib ham qo'yardi. Umuman, u maktab miqyosidagi tantanali yig'ilishlarda artistona xatti-harakatlar qilib, ifodali she'r o'qishi orqali ko'pchilik og'ziga tushgan. Salmonjon domla Nishonboyda shoirlik siyog'i borligini aytgandan beri biz she'rlar yozib tursa kerak, deb o'ylandik.

U ba'zida o'zidan-o'zi jo'shib ketib «fidoyilik», «chin so'z», «vatanga qasam» kabi jumlar yo'g'rilgan uncha katta bo'lmagan she'rni to'lqinlanib o'qib qolar, ayniqsa, har uch qatordan keyin takrorlanuvchi, eshitgan quloqqa biroz g'alatiroq tuyuluvchi «Kal bobomga sodiqman» degan oxirgi misraga alohida urg'u berishni kanda qilmasdi. Bizlarni hayron qoldirardi. To'g'ri, u bu she'rini sinfdan «tor doira»da o'qirdi.

Nishonboy o'zining mana

shunday «xislat»lari, yana qaysidir tomonlari bilan Sunnat domlaga o'xshab ketardi. Shuning uchunmi, ular ruhan bir-birlariga yaqin edilar. Nishonboy bergan har bir o'z savoliga batafsil javob olardi.

Bir kuni u «Dohiy Lenin bilan Kalininni qanday farqi bor, bitta odam bo'lgan deyishadi, to'g'rimi?», deb qolsa bo'ladimi.

Sunnat domla ko'zlarini chaqchaytirib qarab turdi-da, peshonalari tirishib ketdi. Hech qachon domlani bunaqa ahvolda ko'rmagandik. Nihoyat, u qo'lidagi tayoq uchini Nishonboyga nuqib: «Mahmado-nasan, — deb qo'ydi, keyin ovozi pasaytirib, — avval Lenin bo'lgan, keyin Kalinin, qutildimmi?», dedi.

Butun sinf hayratlanib bir-biriga qarab oldi. Yana kim biladi deysiz, domlamiz «SAGU»ni bitirgan odam...

Tinchimas Nishonboyning navbatdagi savoli ham mashhur kishilarga taalluqli bo'ldi: «G'afur G'ulom, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybeklar hamma qatori ko'chalarda yurishadimi? Ularni ko'rganmisiz?»

— Ko'rganmiz! — qaddini g'oz tutib, g'urur bilan bosh silkib qo'ydi Sunnat Aliyevich, — Lekin G'afur G'ulomning uylarini ko'rganmiz. U juda hashamatli imorat. Shundoq darvozasi tepasida mening mana shu bo'yimdan sal kichikroq, xuddi sening bo'yingday keladigan harflar bilan «G'AFUR G'ULOM» deb yozib qo'yilgan. Uning atrofida

gullar ochilib turibdi, tinchlik kabutarlari uchib yuribdi. Shularni ko'rganmiz!... O'ybek domullo, o-o, u kishi juda ulkan yozuvchi-da, biz kitoblaridan o'qiganmiz. Ha, Oybek domulloni esa katta ko'chadan qop-qora mashinalarda o'tib ketayotganda ko'rganmiz. Qo'lni ko'krakka qo'yib, xuddi mana shunday qib «Salom» deganmiz. U kishi kaftlarini silkitib qarab qo'yan! — domla birdan ovozi pastlatib, «javobi»ga yakun yasadi. — Buni har kimga ham aytib bo'lavermaydi. Umuman... mashhur kishilarga yaqinlashishga ruxsat etilmaydi. Ularni har xil «shpionlar»dan himoya qilinadi, davlat qo'riqlaydi...

Xullas kalom, bizga ikki chorak davomida dars berib, ko'p narsalardan xabardor etgan, aql bovar qilib-qilavermaydigan «javob»lari bilan ko'pchiligimizni hayron qoldirgan, G'afur G'ulom yashaydigan uyni, Oybekning o'zini ko'rishga mu-yassar bo'lgan, haftada ikki marotaba bo'ladigan «Tabiiy geografiya»dan keng qamrovli saboq bermoq uchun «g'archillatib» qadam tashlab sinfimizga kirib keladigan domlamiz birdan ko'rinmay qoldi.

Sinf rahbarimizdan Sunnat

## OYGA O'XSHAGIM KELAR

Madina QO'SHOQOVA Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 55-maktabning 6-sinfida o'qiydi. Tabiat go'zalligi, shamol shiddati, bulbullar navosiga jo'r bo'lib, qalbidagi hislarini she'rga soladi. Tengdoshingiz Madinaxonga ijodiy barkamollik tilab, qalaming aslo yozishdan to'xtamasin deymiz.

## ONAJONIM

Onajonim so'zlarinigiz,  
Qalbim gulidir.  
Quyosh kabi yuzlaringiz,  
Mehr nuridir.  
Funlaringiz bedor o'tgan,  
Beshik qoshida.  
Alla aytib tongni chorlab,  
Sahar boshida.

## QISHLOG'IM

Fog'lari toshli-toshli,  
Mehr bilan tutashli.  
Qizlari qalam qoshli,  
Qishlog'imsan, Qoratosh.  
Alpomishlar o'sgan diyori,  
«Yasha vatan» uning shiori,  
Yuragimda hurmatim bori,  
Qishlog'imsan, Qoratosh.

*Madina QO'SHAQOVA.*

Xastamen... Fikrga, tuyg'uga to'lib  
Oy menga hamqadam - sokin yuramen,  
Sog'aysam bir kuni yozaman toyib,  
Hislarga qalbimni yozamen.

Kechalar yururmen telbaday horib,  
Boshimda oy borur - menga hamqadam  
Hayollar uchadi mash'alday yonib,  
Foyib yozajakmen bir kun sog'aysam...

*Oybek*

Aliyevich qattiq betob ekanligini eshitib qoldik. Nishonboy yana uch-to'rt bola Sobirjon aka yetovida «G o' r b a n n i s a» («Gorbolnisa»)ga bordik. Doktorlar ichkariga qo'ymadi. Ertasiga Sunnat Aliyevich vafot etganligi haqida shum xabar tarqaldi. Sinfimizning katta-kichik qizlari bir joyga to'planib olib, yig'lashdi.

Fizkultura o'qituvchimiz «Mahsumov» birinchi marta hammamizni tik turg'izib qo'yib, soatiga qaraganicha rosa besh minut sukut saqlatirdi.

Bunday g'ayri-tabiiy «aza tutish»ga odatlanmagan ayrim bolalar betoqatlanib o'zini u yoq-bu yoqqa tashlagan, qayerigadir qo'l yuborib, qashigan edi, domla ko'm-ko'k ko'zlarini qattiq tikib, o'rischalab nimadir dedi. Shubhasiz, so'kinayotgan edi.

Rosa bir hafta o'tib, fizkultura darsini yana shunday motamsarolik bilan boshladik — Stalin vafot etgandi.

*Dadahon NURIY.*



-Halima opa, gazetamiz faoliyati bilan siz yaqindan tanishsiz, uning muxlislari bilan o'zingiz turli mavzularda uchrashib turardingiz. «Qulog'ingga gapim bor», «Buvimning sandig'i», «Afsonadan-afsonalarga», «Kunlardan bir kun» kabi bir-biridan qiziqarli ruknlaringizda bizning aziz bolajonlarimiz sizga sirdosh, sizga do'st edilar. Bugun esa o'z faoliyatingizni ko'proq kuy va qo'shiqlarga qaratgansiz. Biz bugungi suhbatimizda sizni

beg'ubor bolalikqa qaytarmoqchimiz. Ayting-chi, shoiralik qalbingizga kirgan kunni eslay olasizmi?

- Albatta, men bolalarni, ularning beg'ubor jajji dunyosini judayam e'zozlayman. Shuning uchundir «Tong yulduzi» gazetasiidagi ish faoliyatimda ularni yanayam teranroq angladim. Ular bilan xat orqali do'stlashdim, sirlashdim. Bu gazeta nafaqat meni, balki she'riyat maydoniga mashhur bir qancha ustozlarni ilk she'riy mashqlarini ko'ksiga joylagan, qalbiga o't tashlagan olov kabi yuragimizga kirgan sevimli nashrimizdir. Bolalik haqida menimcha eng jiddiy inson ham zavqlanib so'zlasa kerak. Men bolaligimda bizning qishlog'imiz dunyo bo'lsa kerak, degan shirin orzularda yashardim.

O'shanda oltinchi sinf o'quvchisi edim. Onajonim buyurgan uy yumushlaridan ortib, oynayi jahonni tomosha qilishga o'tirgandik. Qaysidir shoira (hozir esimda yo'q) she'r o'qidi. Ekranga termulib o'tirgan onam, bizga qarab: «Qaniydi, birortang shunaqa she'rlar yozsang edi», dedilar havas qilib. Shu kuni yuragimga shoiralik kirgan deb bemalol ayta olaman. Men shu kuni tuni bilan 10-15 ta she'rlar yozdim.

-O'sha she'rlaringizdan birortasini hozir aytib bera olasizmi?

-O'sha kungi she'rlarimdan esimda qolgani «Onajon» nomli she'r edi. «Menga oq yo'l tila, onajon» misrasi bilan boshlanardi.

-Odatda shoir yoki shoirlar ko'proq kitoblar o'qib, ilhomlanib, keyin shoira bo'lganman, deydingiz.

Siz esa onangizning da'vatlari bilan shoira bo'lgan ekansiz-da?

- Buni hecham inkor etmayman. Birinchi navbatda onam menga turki bo'lgan bo'lsalar, asosiy kuchni adabiyot o'qituvchimiz Ochiloy Ashurovadan olganman. Ustozim onalar haqida she'rlar yodlab kelishimizni aytganlarida, men ilk bor o'sha sinfda birinchi she'rimni o'qib berdim.

Ochiloy opa: «Bu she'rni qayerdan ko'chirding», deb so'radilar. Qo'rqqanimdan zo'rg'a «o'zim yozdim», dedim. Avvaliga ishonmagan

Halima AHMEDOVA-1961 yilda Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi Po'lot qishlog'ida tug'ilgan. Uning «Tungi marvaridgullar», «Erk darichasi», «Ko'zimning tili» kabi she'riy kitoblari nashrdan chiqqan. 50dan ortiq she'rlari hofizlar tomonidan kuyga solingan. Hozirda shoira O'zbekiston radoisining musiqiy yozuvlar bo'limida sharhlovchi vazifasida ishlaydi. Shuningdek, «Ko'ngil ovozi» nomli ehittirishning muallifi ham.

ustozim biroz menga termulib turdilar-da, «yaxshi yozibsiz», deb mehr ila boqdilar. Ertasi kuni esa meni maktabda

Albatta qo'shila man. Muntazam badiiy kitob o'qiydigan o'quvchi bilan o'qimaydigan o'quvchi orasidagi farq tez ko'zga tashlanadi. Kitob o'qiydigan o'quvchi o'ziga ishongan, mehribon va teran fikrlaydigan bo'ladi. O'qimaydigan o'quvchi no'noqroq bo'ladi.

yorug' yulduzlari bo'lmish Abdulla Oripovni, Erkin Vohidovni o'qishsin.

-Bolalarga mehringiz bo'lakcha. Ular bilan samimiy gaplashasiz. Ular bilan tezda til topishib ketasiz.

- Haqiqatan ham bolalarni juda yaxshi ko'raman. Ularni yomon ko'radigan odamning o'zi bormikan? Bilasizmi, ular bilan gaplashganda mazza qilaman. Mabodo ko'cha-ko'yda yig'lab o'tirgan bolani ko'rib qolsam, uni kuldirmaguncha yonidan ketolmayman.

Mahallamiz bolalari shu fe'limni biladilar shekilli, ayniqsa

bahor faslida «yuring, kartoshka ko'mib yeymiz», deb uyimga kelishaveradilar. Kartoshka pishirish bahonasida ular bilan latifalar aytishamiz, kitoblar va maktabdagi darslari, o'rtoqlari haqida suhbatlashamiz. Agar kelajakda bolangni buyuk odam bo'lishini istasang, unga do'st bo'l, degan edi yaponlar. Bu gapni to'g'riligini men ko'p kuzatdim. Bolalarning musaffo dunyosi bor, ularning ko'ngliga darz yetkazmaslik kerak.

- Suhbatimiz yakunida o'zbek bolalar adabiyoti haqidagi fikringizni ham biz bilan o'rtoqlashsangiz?

-Xalqimizda «Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q», degan naql bor. Men bu gapni bekorga eslamadim. Bizni o'zbek bolalar adabiyoti, ayniqsa she'riyati to'kis desak adashmaymiz. Rahmatli ustoz Po'lat Mo'min she'rlaridagi bolalarcha tasvirlar, quvnoq voqealar har bir bola uchun bir dunyo bo'lishi mumkin edi. Bu asarlarda bolalarga yoqadigan xarakterlar bor. Ruslarning boshiga ko'taradigan shoiri Chukovskiy Korneynikidan kam emas. Nazarimda bizda targ'ibot masalasi oqsoqroq. Agar bugungi kun bolalari ko'proq Po'lat Mo'min, Tolib Yo'ldosh, Kavsar Turduyeva, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Umida Abduazimova, Dilshod Rajab she'rlaridan bahramand bo'lsa, hayotda ko'p narsani topgan bo'lardi.

- O'zbekiston radiosining O'zbekiston kanalida har yakshanba kuni berib boriladigan «Ko'ngil ovozi» deb nomlangan musiqiy eshittirishingizni tinglab boramiz. Ayting-chi, yuqoridagi fikrlar asosida biror sahifa tashkil qilsangiz bo'lmaydimi?

-Gapingiz to'g'ri, ammo mening eshittirishim bevosita bolalar muharririyatiga tegishli emas. Shuning uchun bu kabi mavzularni ular tayyorlashgani ma'qul. Ammo mening bir fikrim bor: she'riyat bolalarni yomon fe'l-atvoridan xalos eta olish kuchiga ega. Shuning uchun qaniydi har kuni hech bo'lmaganda, atigi zangori ekran orqali 5-10 daqiqagina «Jajjilar mushoirasi» deb nomlangan ko'rsatuv rejalashtirilsa...

- Ijodingizga samarali baraka tilab, oilangizga salomatlik istab qolamiz.

Mazmunli suhbat uchun rahmat. Suhbatdosh: M.YIGITALI qizi.

## «QISHLOG'IMIZ BIR DUNYO EDI»

kutilmagan ajoyib voqea kutardi. Maktab yigi'lishida ustozim minbarga chaqirdilar-da, «maktabimizdan shoira chiqyapti», deb butun maktabga tanishtirdilar. Shu kundan boshlab men maktabimiz shoirasiga aylandim. Yil davomida maktabimiz sha'nini tuman, viloyat bosqichlaridagi adabiyot fanidagi olimpiadalarda munosib himoya qildim. Ustozim e'tibori meni ko'proq kitoblar olamiga boshladi. Juda ko'p kitoblar topib o'qidim. Ana shu kitoblar orqali dunyoni bildim. Demak, bizning qishlog'imiz dunyo emasligi, bu bizga aziz joy ekanligini angladim.

-She'riyat olamida qaysi ijodkorlarni ko'proq o'qirdingiz?

- Talabalik yillarimda she'rlari ko'nglimizga yaqin Abdulla Oripovni, Erkin Vohidovni tinimsiz o'qidik. Ularni she'rlari bizga go'yo madhiya bo'lib ketgandi.

### «O'g'limga darsliklar» turkumidan TABIAT DARSII

Har bitta daraxtda bir dil yashaydi,  
Tikilganim sari o'sadi ko'nglim.  
Ularga quloq sol, ularni tushun-  
Daraxtlar aldashi bilmaydi o'g'lim.

Jajji yuragingda kimning sog'inchi,  
Sozaman na qilay boshqadir yo'lim.  
Songa dadangdan ham mehribon, yaqin,  
Daraxtlar nomardlik qilmaydi o'g'lim.

Jasur bo'l, ko'zingda ko'rmay sira yosh,  
Har qanday alamni ichingga yut jim.  
Do'stlardan asizroq, do'stlardan baland,  
Daraxtlar hech qachon sotmaydi o'g'lim.

Qachondir barvasta yigit bo'lursan,  
Tolsingni ko'rib to'lgaydir ko'nglim.  
Ulardan sadoqat sabog'ini ol-  
Daraxtlar hiyonat qilmaydi o'g'lim.

Kitoblar olami esa yana bizga Usmon Azimni, Xurshid Davronni, Shavkat Rahmonni tanitdi.

-Shu o'rinda birinchi o'qigan kitobingiz haqida ham gapirib o'tsangiz?

- Ha, ilk o'qigan kitobimni menga dadam sovg'a qilgandilar. Bu kitob Po'lat Mo'minning bir she'rini yoddan aytib berganim evaziga qo'lga kiritilgandi... Ana shu kitobning nomi «Qovoqvoy va Chanoqvoy» edi. Kitobni esa o'sha kuni kechasiyoq qayta-qayta o'qib chiqqandim.

-Ko'pincha o'quvchilarni kitob o'qimaslikda ayblashadi, siz ham shu fikrga qo'shilasizmi?



-Siz el tanigan sara shoirlarimizdan birisiz. Yaqinda «Darakchi» gazetasidagi suhbatigizda «O'g'limni shoir bo'lishini istamayman», - deb aytibsiz.

-To'g'ri, Shohdilning tabiatida ham shoirlikning ma'lum tomonlari bor. Rosti, bu holatni bolamda sezib qolganimdan so'ng, uni bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'lganman. Ming shukrki, bugun u she'riyatga umuman begona. Bu yomon ma'noda emas. Hozir u hayotga hushyorroq qarashni o'rganyapti. Til o'rganyapti, sport mashg'ulotlariga qatnayapti, kelajakda noyob kasb egasi bo'lishini juda-juda xohlayman.

-Halima opa, gazetamizga ko'pincha bolalar o'zlari yozgan she'rlarini yuborishadi. Ularning ichida yaxshi she'rlar ham bor. Ammo ba'zida o'zim yozdim deb, kimnidir she'rini ko'chirib ham jo'natishadi. Bunday bolalarga qanday maslahat bergan bo'lardingiz?

- Hali-hali esimda... Maktabimizda bir o'quvchi qizning maqolasi bolalar gazetasida chop etilgandi. Bu o'quvchilar orasida rosa shov-shuv bo'lib ketdi. Shundan keyin hamma gazetaga maqola yozishga uringandi. Bolalikdan mashhur yoki asar qahramonlaridek taniqli bo'lishga intilish tanish holat. O'zimning she'rim deb ko'chirib she'r yuborayotgan bolalar ham bu holdan holi emas. Ammo maktabdagi adabiyot o'qituvchilar she'rga havasi bor bolalar bilan ishlasalar yaxshi bo'lardi. She'riyat cheksiz va chuqur dengizdir. Unga shunchaki sho'ng'ib bo'lmaydi. Ayniqsa, kimnidir yozib qo'ygan she'rini o'zimizni deyish - o'g'irlikdir. She'r - mehnatni, mashaqqatni yaxshi ko'radi. Maslahatim: badiiy kitoblarni, ayniqsa she'riyatning





Bir bor ekan...

Katta o'rmondagi ko'p hayvonlar orasida tulki o'zidan katta va kuchli hayvonlardan qo'rqib yasharkan. Ularga duch kelganida doimo xushomad qilarkan. Bunday hayot kechirish joniga tekkan tulki

## BO'RINING QULCI

kunlarning birida ayiqni uchratib qolibdi. Va u bilan

do'stlashishni ko'zlab, uni makonigacha kuzatib qo'yish uchun yo'ldosh bo'libdi. Tulki ayiq bilan hamrohligidan quvonib borardi. Qulay fursat tug'lsa u bilan do'stlashish niyati borligini aytish va shu yo'l bilan har xil hayvonlar oldida o'z mavqei ko'tarib qo'ymoqchi bo'libdi. Yo'lda ularga bo'ri duch kelibdi. Tulki o'zini o'rmon polvoni bilan hamrohligidan mag'rurlanib, oldidan chiqqan bo'rini pisand ham qilmay, salom bermasdan o'tib ketibdi. Buni bo'ri fahmlabdi. U ayiq polvonning yoniga kelib, qulog'iga nimalardir deb shivirlabdi. Ayiqning iniga yetib kelishgach, tulki o'z maqsadini ayiqqa aytmoqchi bo'lib og'iz juftlagan ekan, shu payt ayiq unga, «Bor, boraqol, sen bo'rining quli ekansan, u seni kutib qolgandir, tezroq jo'natvorigin, deb tayinlagan edi» deya, uni ortiga qaytarib yuboribdi.

Qissadan hissa shu ekanki, birovning nufuzi boshqa uchun hech qachon so'yabon bo'lolmas ekan.

Abdulla Ahmad MUHAMMAD ALLI.



## OPPOQ ORZULAR OG'USHIDA

Tengdoshingiz Xosiyat SHOKIROVA-Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 222-maktabning 7-sinfida tahsil oladi. A'lochi, jamoatchi o'quvchilardan. Yoshligidan badiiy ijodga qiziqadi. Qalbidagi bokira tuyg'ulari xuddi bodom gullari singari oqliklar qo'yniga cho'mib, she'riy misralarga ko'chadi. Ijod gulshani ostonasiga qutlug' qadamlarini qo'yayotgan bu tengdoshingizga ijodiy barkamollik tilaymiz.



### QISH

Uchar qishning shamoli,  
Fog'ning tik qoyasida.  
Fog'dagi qor jamoli,  
O'zshar qish g'oyasiga.  
Avval yomg'ir yog'adi,  
Kutib tur deydi qorga.  
Qor shoshilib yog'adi,  
Oz qoldi dob bahorga.  
Fog' bag'rida o'ynoqi,  
Qorlar yorug' nur sochar.  
Salobatli qor tog'i,  
Maqtanib sirin ochar.

### OYMOMA

Fungi payt sukunatda,  
Yulduz to'la hilqatda.  
Portab turar Oymoma,  
So'z qotaman, hoy mama.  
Oymomajon, oymoma,  
Nurlarga xo'p boy mama.  
Fundada chiqib osmonga,  
O'zshaysan chin postbonga.  
Yoningda ko'pdir yulduz,  
U bolalaring so'zsiz.  
Bulut kiming bo'ladi,  
Buni samo biladi.

Xosiyat SHOKIROVA.

Road (o'zbekcha)

Avlod

Ijro, obroz

Inson a'zosi

Aktrisa (hind)

Poytaxt

Fazo

Fasl

Qasam

Kim? ...?

Uka

O'q, kamon

Harf turi

Sita yori

Kimyoviy unsur

Go'zal

Toza, ozoda

Hindlar kiyimi

Mard, jasur

Volida, oyi

Kuy, musiqa

Hayo

Bir xorijlik mehmon sayohatdan juda kech mehmonxonaga qaytibdi. Mehmonxona ichkarisiga kirib, qabulxonada o'tirgan xizmatchidan so'rabdi:

-Mehmonxonangizda bo'sh xona bormi?

Shu payt yana bir sayyoh kelib u ham bo'sh xona so'rabdi.

-Faqat birgina xona bo'sh, u ham bo'lsa bir yotoqxonadan iborat bo'lib bir oila uchun mo'ljallangan, - debdi mehmonxona xizmatchisi.

-Sizlarga ana shu xonani bersam qarshi emasmisizlar? -

so'radi mehmonxona xizmatchisi, - bu sizlar uchun ham yaxshi bo'lardi, xona haqini ikkingiz bo'lishib to'lar edingiz.

Avvaliga bu fikr ikkala sayyohga ham ma'qul kelmadi.

Bizning tarjima

## TASAVVUR KUCHI

Lekin yomg'ir sharros quyayotganini ko'rib, ilojisiz rozi bo'lishdi.

Shundan so'ng, sayyohlarning yuklari ichkariga olib kirildi.

Ular yomg'irli havo kayfiyatidan tezda uyquga ketishdi. Tun yarmida to'satdan birinchi kelgan mehmon, ya'ni Daniyel, allaqanday shovqindan uyg'onib ketdi.

-Nima bo'ldi? - taajjublandi Daniyel.

-Uzr, sizni ham uyg'otib yubordim.

O'zimni juda yomon his qilyapman, boshim qattiq og'riyapti. Agar meni tirik qolishimni istasangiz, derazalarni ochib yuboring, menga havo yetishmayapti.

Daniyel sakrab o'rnidan turdi va

gugurt qidira boshladi. Ammo qorong'uda hech narsa topa olmadi. Bemor sayyohning esa xuruji tobora avjiga chiqardi:

-Havo, havo, men o'lyapman...


Endi Daniyel derazani gugurtsiz qidira boshladi va nihoyat topganday bo'ldi. Lekin uni ocha olmadi. Bemorning ovozi kuchsizlanib borardi.

Daniyel shoshilganicha bir stul olib derazani sindirdi. Shundan so'ng, bemor sayyoh o'ziga kela boshladi va Daniyelga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

So'ng ikkala sayyoh ham tinchgina uyquga ketishdi.

Ertasi kuni ular uyg'onib, hayratdan yoqa ushlashdi. Sababi, derazalarning hech biri sinmagan, aksni ko'radigan oyna esa yerda chil-chil sinib yotardi.

Ingliz tilidan Gavhar SHOMANSUROVA tarjimasini.



Gazetamizning navbatdagi soni 31 yanvarda chiqadi.

Tuzuvchi: Nargiza RAHMONOVA,  
Bekobod shahri, 9-maktabning, 6-«A» sinf o'quvchisi.

One yartim - oltin beshikim  
**TONG yulduzi**

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

**BOSH MUHARRIR:**

Umida

ABDUAZIMOVA.

**TAHRIR HAY'ATI:**

Turobjon JO'RAYEV,  
Shuhrat AHMEDOV,  
Botir UBAYDULLAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruz JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Abdusaid KO'CHIMOV,  
Nurxon NAFASOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida

N: 022 raqam bilan  
2003 yil 11 dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.

Hajmi A-3,  
2 bosma taboq.

Adadi - 46550  
Buyurtma N: J 909

Dizayner va sahifalovchi.

Otabek  
ESHCHANOV.  
Navbatchi:  
Ma'mura  
MADRAHIMOVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38

144-38-10

144-21-75

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45